

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-aprel

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3240,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 110,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 547,1 mlrd. so'mga oshdi.

Farg'ona viloyatida xizmat ko'rsatish faoliyati, 2019 yil yanvar-aprel




2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Xizmatlar - jami	3240,8	110,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	195,1	104,0
moliyaviy xizmatlar	428,9	163,9
transport xizmatlari	694,4	103,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	641,6	100,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	80,1	101,2
savdo xizmatlari	1039,3	106,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	103,8	103,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	152,2	121,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	65,1	102,7
ijara xizmatlari	91,1	100,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	101,0	101,6
shaxsiy xizmatlar	176,4	103,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	29,1	133,3
boshqa xizmatlar	84,4	100,6


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (163,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (133,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,0 %), savdo sohasi (106,4 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-aprel oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so‘m



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 1039,3 mlrd.so‘m, transport xizmatlarida 694,4 mlrd.so‘m, moliyaviy xizmatlarda 428,9 mlrd.so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 195,1 mlrd.so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

**2019 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan, %)**




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,1 %), transport xizmatlari (21,4 %), moliyaviy xizmatlar (13,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,0 %), shaxsiy xizmatlar (5,4 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,7 %), tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 80,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 7,8 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 72,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, foizda



2019 yil yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 694,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 641,6 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,4 foizini tashkil etadi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (163,9 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (133,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,0 %), hamda savdo sohasidagi xizmatlar (106,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	3240,8	110,8
Farg'ona sh.	1486,7	116,1
Qo'qon sh.	415,3	108,1
Quvasoy sh.	50,9	107,6
Marg'ilon sh.	317,2	106,8
Oltiariq t.	90,4	107,4
Qo'shtepa t.	51,5	105,6
Bag'dod t.	68,7	105,7
Buvayda t.	65,0	106,2
Beshariq t.	68,6	106,4
Quva t.	79,2	106,4
Uchko'prik t.	89,4	105,8
Rishton t.	61,2	102,9
So'x t.	25,7	104,8
Toshloq t.	70,4	107,2
O'zbekiston t.	70,4	108,0
Farg'ona t.	92,0	107,3
Dang'ara t.	65,6	106,5
Furqat t.	31,9	103,9
Yozyovon t.	40,8	102,8

2019 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (116,1 %), Qo'qon shaharlarida (108,1) hamda O'zbekiston (108,0 %), Oltiariq (107,4 %) va Farg'ona tumanlarida (107,3 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan %)



2019 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (45,9 %), Qo'qon (12,8 %) va Marg'ilon (9,8 %), shaharlarida hamda Farg'ona (2,8 %), Oltiariq tumanlarida (2,8 %) qayd etildi.